



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

BUYUK IPAК YO'LIDA JOYLAШGAN QADIMGI FARG'ONA SHAHLARINING O'RGANILISHI VA TURIZM SALOHIYATI

Mahliyo Turdixo'jayeva

Tayanch doktorant,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Email: turdixujayevamakhliyo@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-5599-9647

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qadimgi Farg'ona, Buyuk ipak yo'li, Xitoy, turizm, shahar madaniyati, karvon yo'llari, Chust, Axsikent, Quva, Koson.

Annotatsiya: Maqola Buyuk ipak yo'lida joylashgan qadimgi Farg'ona shaharlari tarixi va turizm salohiyatiga bag'ishlangan bo'lib, unda bugungi kunda Farg'ona vodiysida joylashgan shaharlarning tarixiy o'rganilishi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, vodiyyadagi tarixiy-arxeologik yodgorliklarning ahamiyati va ularning turizmdagi o'rni tahlil qilingan. Qadimda Xitoyning g'arb davlatlari bilan savdo-sotiq faoliyatida o'ziga xos ko'priq vazifasini bajargan Farg'onganing savdo karvonlari o'tgan shahar va qishloqlari tarixini mukammal o'rganib, turizm yo'nalishida uning yutuqlaridan foydalanish kerakli xususida ma'lumotlar maqoladan o'rinni olgan. Bugungi kunda butun dunyo xalqlarini e'tiborini jalb etib kelayotgan Axsikent, Quva, Chust va boshqa vodiyning mashhur qadimgi shaharlarini sovet davri va mustaqillik yillarda tadqiq etgan arxeologlarning xulosalalari keltirilgan. "O'zbekturizm" Milliy tashkilotining yordamida Buyuk ipak yo'lida joylashgan qadimgi manzilgohlar joylashgan arxeologik, tarixiy va madaniy obyektlarni qaytabunyod etish, tiklash va ulardan to'g'ri foydalanish bo'yicha yaratilgan "Meros" dasturi haqida ham biroz ma'lumotlar berib o'tilgan. Farg'ona va Andijon o'lkashunoslik muzeylarining qo'shma ekspeditsiyalari va ularning natijalari keltirilgan. 62-“Xalqaro Gullar festivali” doirasida tashkil etilgan “Farg'ona vodiysida turizm: yangi Axsikent turizm markazini yaratish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

STUDY AND TOURISM OF THE ANCIENT CITIES OF FERGANA ON THE GREAT SILK ROAD

Mahlyo Turdihojayeva

Foundation PhD student,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ancient Fergana, the Great Silk Road, China, tourism, urban culture, caravan routes, Chust, Ahsikent, Kuva, Kason.

Abstract: The article is devoted to the history and tourism potential of the ancient cities of Fergana located on the Great Silk Road, and comments on the historical study of the cities located in the Fergana Valley today. Also, the importance of historical and archaeological monuments in the valley and their role in tourism were analyzed. In ancient times, Fergana, which served as a unique bridge in China's trade activities with western countries, thoroughly studied the history of the cities and villages that passed through the trade caravans, and it is necessary to use its achievements in the direction of tourism took place. The conclusions of the archaeologists who studied the famous ancient cities of Akhsikent, Kuva, Chust and other valleys during the Soviet era and the years of independence are presented. He gave some information about the "Heritage" program created with the help of the National Organization "Uzbektourism" for the reconstruction, restoration and proper use of archaeological, historical and cultural objects located in ancient settlements located on the Great Silk Road. passed. Joint expeditions of Fergana and Andijan local history museums and their results are presented. Information about the international scientific-practical conference on the topic "Tourism in the Fergana Valley: creating a new Aksikent tourism center" organized within the framework of the 62nd "International Flower Festival" is also presented.

ИЗУЧЕНИЕ И ТУРИЗМ ДРЕВНИХ ГОРОДОВ ФЕРГАНЫ НА ВЕЛИКОМ ШЕЛКОВОМ ПУТИ

Махлё Турдиходжаева

Докторант,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Древняя Фергана, Великий Шелковый путь, Китай, туризм, городская культура, караванные пути, Чуст, Ахсикент

Аннотация: Статья посвящена истории и туристическому потенциалу древних городов Ферганы, расположенных на Великом Шелковом пути, и комментирует историческое изучение городов, расположенных в Ферганской долине сегодня. Также проанализировано значение историко-археологических памятников в долине и их роль в туризме. В древние

времена Фергана, служившая уникальным мостом в торговой деятельности Китая с западными странами, тщательно изучала историю городов и деревень, через которые проходили торговые караваны, и необходимо использовать ее достижения в направлении туризма. имело место. Представлены выводы археологов, исследовавших знаменитые древние города Ахсикент, Кува, Чуст и другие долины в советское время и годы независимости. Он дал некоторую информацию о программе «Наследие», созданной при помощи Национальной организации «Узбектуризм» для реконструкции, реставрации и целевого использования археологических, исторических и культурных объектов, расположенных в древних поселениях, расположенных на Великом Шелковом пути. Представлены совместные экспедиции Ферганского и Андижанского краеведческих музеев и их результаты. Также представлена информация о международной научно-практической конференции на тему «Туризм в Ферганской долине: создание нового туристического центра Аксикент», организованной в рамках 62-го «Международного фестиваля цветов».

KIRISH

Bugungi kunda tarixiy-arxeologik yodgorliklarning ahamiyatini yetarlicha baholay olmayotganimiz, afsuski, turizm imkoniyatlarimizni biroz cheklamoqda. Vaholanki, yurtimizda, xususan, Farg‘ona vodiysida bir vaqtning o‘zida arxeologik-tarixiy, qolaversa, jannatmakon go‘zalligini namoyish eta oladigan go‘zal manzaraga boy obyektlar talaygina. Mamlakatimizda ichki turizmga e’tibor bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilayotgani quvonarli, albatta. Ushbu sohaning rivoji uchun barcha zarur bo‘lgan tashkiliy-huquqiy mehanizm yaratilib, kerakli amaliy ishlar davom etmoqda. Vatanimiz tarixini o‘rganishda moddiy madaniyat namunalarining o‘rni beqiyosdir. Chunki, moddiy madaniyat namunalari xalqimizning eng qadimgi davrida hali yozuv mavjud bo‘lmagan vaqtdagi tarixini ham o‘rganishimizga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasi hududdidagi har bir tarixiy yodgorlik davlat muhofazasida bo‘lishi tariximizga, o‘tmishimizga bo‘lgan hurmatdir.

Tarixiy obyekt bor ekan, unda albatta, xalqimizning o‘tmishi, kechagi kundagi ishlari, mehnati mavjuddir. Xitoyning nufuzli “South China Morning Post” gazetasi jurnalistlarining fikricha, o‘zbek diyori chinakam arxitektura ixlosmandlari e’tiborini torta oladi. Yirik minoralar va masjidlar o‘zining go‘zalligi bilan kishini hayratga soladi hamda go‘yo tarixga qaytib, o‘tmishni yorqin tasavvur qilish imkonini beradi. [11: B.14–19] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan “O‘zbekturizm” kompaniyasi, Madaniyat vazirligi, Fanlar

akademiyasi, Tarixiy yodgorliklarni asrash respublika jamiyati bilan hamkorlikda Buyuk ipak yo‘lidagi qadimgi hududlardagi arxeologik, tarixiy va madaniy yodgorliklarni tiklash, yuksaltirish va ulardan unumli foydalanish bo‘yicha “Meros” dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dastur O‘zbekistonda tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrash, tadqiq etish kabi bir qator vazifalarni va turizm sohasini rivojlantirishning yangi bosqichini aniqlab beradigan, turli mahalliy va xalqaro tashkilotlar ishtirokida amalga oshiriladigan choralar majmuyini o‘z tarkibiga kiritadi. Bugungi kunda “O‘zbekiston Respublikasida ichki hamda ziyorat turizmini yanada yuksaltirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni asosida tasdiqlangan reja bo‘yicha yurtimizda ko‘plab foydali ishlar bajarilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori shular jumlasidan. Kishilik jamiyatining daholaridan biri Arnold Toynbi vodiya “Qadimgi Farg‘ona – jahon ցivilizaცiyaning muhim markazlaridan biridir” deb ta’rif berishi bejiz emas. Farg‘ona vodiysi O‘rta Osiyodagi yirik tarixiy-madaniy o‘lkalardan biri hisoblanib, u O‘rta Osiyoning shimoli-sharqi qismida, Sirdaryo va uning irmoqlari havzasida joylashgan. Adabiyotlarda “O‘rta Osiyo javohiri” deb nom olgan Farg‘ona vodiysi suv manbalariga boy, iqlimi mo‘tadil, tuprog‘i unumdon bo‘lib, bu zaminda insonning yashab, mehnat qilishi uchun juda qulay tabiiy shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan.

Qadimda Xitoyning G‘arb davlatlari bilan savdo-sotiq faoliyatida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajargan Fag‘onaning savdo karvonlari o‘tgan shahar va qishloqlari tarixini mukammal o‘rganib, turizm yo‘nalishida uning yutuqlaridan foydalanish muhim ishlardan biri hisoblanadi. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan vodiyning qulay geografik sharoitlari, boy tarixiy, madaniy meroslari, ayni vaqtda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda yurtimizda ichki turizm rivojlanishi asosan yomon yo‘llarni har tomonlama qayta tiklashga ko‘proq bog‘liq. Chunki, istalgan rivojlangan mamlakat taraqqiyotini belgilaydigan narsa bu yo‘ldir. Yaxshi va sifatli yo‘l davlat taraqqiyotining kafolati sanaladij[3:B.21–22].

Farg‘ona vodiysida aholi zich yashaganligi, qadimiy shaharlar o‘rnida yangi bino va shaharlar vujudga kelganligi sababli ko‘plab shaharlar xarobalarini o‘rganish imkoniyati cheklangan. Shunga qaramasdan, Namangandagi qadimiy aholi hududlari orasida Buonomozor, Koson va Axsikent shaharlari qoldiqlarining uzoq davrlarga tegishli tarixi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Namangan viloyatidagi tarixiy yodgorliklar qadimgi davrlarga va ko‘pchiligi o‘rta asrlarga mansubdir. Shuning uchun ularidan sayyohlarni jalb qilish maqsadida turlicha foydalanish mumkin. Chust shahar madaniyati ham Namangan viloyatining turizm salohiyatini yuqori bosqichga olib chiqsa oladigan hududlar sirasiga kiradi.

Chust madaniyati o‘ziga xos tarixga ega ekanligi bilan e’tiborlidir. Chust madaniyatiga taalluqli yodgorliklar, asosan, Farg‘ona vodiysining shimoliy-sharqi qismlarida uchraydi, ularning soni hozirda 80 dan ortiq. Ular daryolar bo‘yida bir-biridan, odatda, 20–30 kilometr uzoqlikda joylashgan. E’tiborli jihatni, Markaziy Osiyoning boshqa biron ta vohasida ilk temir davriga oid bunchalik ko‘p yodgorlik topilmaganligidadir. Ushbu madaniyatga tegishli dastlabki yodgorlik 1950-yil arxeolog M.E.Vorones tomonidan o‘rganilgan. M.E.Vorones mazkur yodgorlikda ikki marta tekshiruv ishlari olib borgan. Uncha ko‘p bo‘lmagan sopol parchalari, bronza buyum bo‘laklariga asoslangan tadqiqotchi Chust yodgorligini mil. avv. I mingyilliklar bilan belgilagan edi. Shundan so‘ng Chust yodgorligi uzoq yillar maxsus tadqiqotlar maydoniga aylandi.

M.E. Voronesdan so‘ng bu yerdagи qazishma ishlarini Ya.F. G‘ulomov rahbarligida V.I. Sprishevskiy davom ettirdi. [11: C.69–76] 1953–1961-yillarda ushbu tadqiqotchi yodgorlikning deyarli barcha joylarida keng miqyosli arxeologik qazishmalar olib bordi. 1953–61-yillarda Sprishevskiy Chust madaniyatida muntazam arxeologik tekshirish ishlari olib borgan va o‘zining xulosalarini chiqargan. U Farg‘ona vodiysi qadimgi madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘g‘ri baholay olgan. V.I. Sprishevskiyning Chust qarorgohi haqidagi tadqiqotlarini o‘sha davrlar uchun Farg‘ona arxeologiyasida muhim yangilik deb hisoblash mumkin.

1956–1958-yillarda Farg‘ona va Andijon o‘lkashunoslik muzeylarining qo‘shma ekspeditsiyasi uyuştirilib, ochib o‘rganilgan qabrlardan Chust madaniyati va bronza davri Qayroqqum dasht madaniyatiga oid topilmalar bir joydan aniqlandi. Chust madaniyatining o‘rganilishida N.G. Gorbunova, Yu. A. Zadneprovskiy, G.P. Ivanov, B.A. Latinin, B.X. Matboboyev, M. Issomiddinov, A. Anorboyev, A. A. Asqarov va boshqa bir qator arxeologlarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, Yu.A.Zadneprovskiyning mehnatlari katta hisoblanib, olim qadimgi Chust madaniyati to‘g‘risida bu madaniyat asl shu yerning o‘zida vujudga kelgan va mahalliy aholi tomonidan yaratilgan, degan fikrni bildiradi. V.V.Masson, Zadneprovskiyning ushbu fikrga qo‘shilgan holda, Chust madaniyati so‘nggi bronza davriga taalluqli, u miloddan avvalgi X–VIII asrlarga to‘g‘ri keladi, cho‘l ko‘chmanchi aholining ko‘chishi va o‘troqlashuvi natijasida shakllangan degan fikrni ilgari suradi. Ammo, Zadneprovskiy Chust madaniyatiga qadar qadimgi Farg‘onada asl dehqonchilik madaniyati bo‘lmagan, deb noaniq fikr bildiradi. Bu fikrga e’tiroz bildirib, G.P.Ivanov shunday isbotni ilgari suradi: “Qadimgi Qayroqum manzilgohlari ilk va keyingi davrlarga ajratiladi, keyingi manzilgohlardan topilgan sopol buyumlar Eylaton kulolchiligiga o‘xshash keladi,” – deb yozadi. Ushbu madaniyat aholi sonining keskin ortishiga olib kelgan o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi

rivojlanishi bilan bog‘liq. Matboboyevning aytishicha, aynan shu davrda vodiyning sharqi qismida, Andijon viloyatining Oyim qishlog‘idan 2 km sharqda joylashgan Dalvarzin, undan shimoli-sharqda joylashgan Ashqaltepa va boshqa shu kabi ilk shahar ko‘rinishidagi yodgorliklar shakllana boshlagan. Miloddan avvalgi VII asrga kelib, Chust madaniyati tugaydi va rivojlanishning yangilk temir asri Eylaton madaniyati yodgorliklariga o‘z o‘rnini beradi. Ushbu davr materiallarida har ikkala madaniyatlarning o‘zaro uyg‘unlashish jarayoni yaqqol ko‘zga tashlanganini payqash mumkin. Farg‘ona vodiysidagi Chust madaniyati yodgorliklaridan olingan suyak qoldiqlariga e’tibor qiladigan bo‘lsak, unda yirik shoxli qoramollarning soni ko‘pchilikni tashkil etadi. Yu.A. Zadneprovskiyning xulosalari, yirik shoxli qoramollarni ko‘paytirish dehqonchilik xo‘jaliklarida muhim ahamiyat kasb etganligini anglatadi. Ana shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, Farg‘ona vodiysida yirik shoxli qoramollarni qo‘lga o‘rgatish Chust davrigacha ma’lum bo‘lgan.

Sirdaryo qирғоqlarida joylashgan qadimiy Axsikent xarobalari ham ko‘plab sayyoohlarni o‘ziga jalb qiladigan maskanlardan biridir. Bu hududda turizmni tarixiy yodgorliklar bilan birga ekologik manzaralarni, so‘lim dam olish maskanlarini tashkil etish orqali rivojlantirish mumkin. Huddi shunday Kosonsoy tumanidagi qadimiy mug‘ xarobalari, Pop tumanining Chodak qishlog‘i hududlari, Chortoq tumani Baliqko‘l qishlog‘idagi ziyoratgohlarda ham ekologik imkoniyatlar mavjud, ular ham yuqorida gidek sayyoohlarni o‘ziga jalb etadi [3:B.8-9]. 1960-yildan esa akademik Yahyo G‘ulomov boshchiligida mutaxassislar, 1979-yildan boshlab O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi A. Anorboyev boshchiligidagi Farg‘ona ekspeditsiyasining maxsus bo‘limi Axsikentda arxeologik qazishma ishlarini amalga oshirishdi [5:B.130].

Axsikent hududini arxeologik o‘rganish ishlari asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida boshlandi. Undagi arxeologik qidiruv ishlarini asosan rus arxeologlari, jumladan, 1885-yil N.I.Veselovskiy (Peterburg universitetining professori, taniqli arxeolog va sharqshunos olim Eski Axsining 5 ta hududini tanlab olib, ularning 10 ta punktida qazishma ishlarini olib borgan arxeolog), 1914-yilda I.A.Kastanyelar (1913-yilning aprel hamda iyun–iyul oylarida Rossiya imperatori huzuridagi geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi topshirig‘iga ko‘ra, Toshkent va Namangan uyezdlarida tarixiy-etnografik tadqiqotlar o‘tkazishga ikki marta yuborilgan tadqiqotchi) olib borganlar.

XX asrning 30–40-yillarida mashhur arxeologlar E.A. Masson va A.N. Bernshtam ham Axsikent hududida arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Bundan tashqari, A. Midendorf va V. Bartold, I.V. Nalivkin, N.P. Ostromov, N .Pavlov va boshqa bir qator olimlar ham hududni o‘rganganlar. 1939-yilda esa Katta Farg‘ona kanali qurilishi vaqtida M.Ye. Masson

Axsikentda arxeologik qidiruv ishlari bilan shug‘ullanib, bundan 2 ming yil ilgari ushbu maskanda yirik shahar bo‘lganligi haqidagi xulosani ilgari surganlar. 1946–1948-yillarda A.N. Bernshtam rahbarligida Pomir-Oloy arxeologik ekspeditsiyasi vakillari tarafidan o‘tkazilgan qidiruv ishlari asosida Axsikentning tarixiy arxeologik obyekt ekanligi xususida yangi ilmiy ma’lumotlar qo‘lga kiritilgan. Ushbu tadqiqot ishlariga asoslangan holda, shaharda ilk hayot Kushon sultanati vaqtida boshlangan, ammo Axsikentning gullab-yashnashi Turk xoqonligi davriga to‘g‘ri kelgan, so‘ng keyingi davrlarda (IX–X asrlar) Farg‘ona yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan degan g‘oyani olib chiqishgan edi. [6:S. 244–245]. 2023-yil 62–“Xalqaro Gullar festivali” doirasida tashkil etilgan “Farg‘ona vodiysida turizm: yangi Axsikent turizm markazini yaratish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Namangan viloyatining ko‘zgusi hisoblanmish Axsikent yodgorligini yana bir bor e’tirof etdi. “Xalqaro gullar festivali o‘zining birinchi haftasida dunyoning 43 davlatidan 40 mingga yaqin ziyoratchilarni o‘ziga chorladi. O‘zbekistonning Pokistondagi turizm elchisi Ammad Rohayl, arxitektor, doktor Zahro Xusaynlar O‘zbekistonning Hindistondagi elchisi, jahonga mashhur dizayner Ritu Beri, nufuzli tashkilot rahbarlaridan biri Beate Randi Vagnerlar turizm rivojida Axsikent kabi noyob arxeologiya yodgorligining o‘rni va roli yuqori ekanligini ta’kidladilar. Axsikent – ochiq osmon ostidagi muzey bugungi kunda dunyo sayyohlarining e’tiborini jalb etib kelmoqda-Qadim tamaddun, ajdodlaringiz aql-u zakosi, to‘g‘risi, bizni lol qoldirdi, –deydi hindistonlik sayyoh Ramu Manimoji. Bundan ming yil avvalgi shaharning suv taqsimlash inshootlari, ochiq osmon osti muzeyida ko‘rganimiz o‘scha davrda har bir xonadonda tozalikka rioya etilishi haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tdi. Bobur voyaga yetgan maskanni ziyorat etish uchun Chennai shahridan tashrif buyurgan muhandis-konstrukturlar Ramu Manimoji va Asvini Ramu bu yerdagи arxeologik hududlar bilan yaqindan tanishgandan so‘ng o‘zining ilmiy xulosalarini berdi. Hind sayyohlarini o‘ziga jalb etayotgan ushbu maskanni yanada mukammalroq tadqiq etish tarixchi va arxeologlarning asosiy vazifalaridan biridir.

Farg‘ona o‘zining tarixiy maskanlari, aziz qadamjolari bilan sayyohlarni doim jalb etib kelgan. Uning markazi, Rishton tumani sayyohlar bilan doim gavjum. Hozirgi vaqtida Farg‘onada yangi sayyohlik yo‘nalishlarini yaratish, sayyohlarni ko‘plab arxeologik yodgorliklar bilan yaqindan tanishtirish uchun imkoniyatlar yaratishga e’tibor qaratilmoqda. Shu o‘rinda aytish kerakki, Farg‘onaning 113 ta arxeologik yodgorliklari dunyo sayyohlarini hamisha o‘ziga jalb etadi [9: B.44].

Rishton kulolchiligi, Quvadagi budda ibodatxonalari qoldiqlari zamirida hududda turizm sanoatini zamonaviy jahon standartlariga moslashtirish sayyohlarning talablariga javob bera oladigan sayyohlik sanoati obyektlarini rivojlantirish maqsadi ko‘zda tutilgan. Quvani

arxeologik o‘rganishda B.A. Latinin, V.D. Jukov, A.N. Bernshtam, V.A. Bulatova, I.A. Axrorovlarning hizmatlari katta. Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, V.A. Bulatova va D.P. Varxotovalarning tadqiqotlarida VII–VIII asrlar materiallari shahriston tashqarisidagi alohida tepalikda sof holda topilgan. Matboboyev olib borgan shahristondagi kuzatuvlar paytida esa ilk o‘rta asr kulolchilik idishlari ancha qalin qatlama uchraydi. Ular keyingi o‘rta asr qatlamlari ostidan kovlab ochilgan. Muallif ko‘p hollarda VII–VIII asrlardan keyingi davrga oid materiallar aralashib ketganligini o‘rganilayotgan davrdan keyingi qurilishlar yoki o‘sha paytdagi siyosiy notinchlik jarayoni natijasidagi vayronagarchiliklar ham sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkinligi bilan izohlaydi. VIII asrning birinchi yarmida yuz bergen kuchli yong‘in izlari shundan dalolat berishini ta’kidlaydi.

B. Matboboyev doktorlik disertasiyasida ilk o‘rta asrlar uy-joylari tarixi vodiylar arxeologiyasida yaxshi o‘rganilmaganligini hisobga olib qazishmada qazib ochilgan xonalardagi me’moriy qoldiqlar tavsifini keltirib o‘tgan. Quva ilk o‘rta asrlarda vodiyning janubiy qismida kulolchilik markazi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Hatto ibodatxona ham shahristondan tashqarida qurilgan. Bu kamdam kam kuzatiladigan holatdir. Quva shahristonida 1996–1998-yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida birinchi bor ilk o‘rta asrlarga doir kulolchilik namunalarining topilishi ham ilmiy yangilik bo‘ldi. Bundan tashqari, turli yo‘nalishlar bilan Quvani o‘rgangan tadqiqotchilar talaygina, ularning ishlari ham arxeologik tadqiqotlar bilan birgalikda o‘rganilmoqda. Quvada ilk o‘rta asrlardagi sopol buyumlar arkda, shahristonda va shahriston tashqarisidagi arxeologik qazishmalarda qayd etilgan. Bu materiallar qisman V.A.Bulatovaning “Drevnyaya Kuva” nomli monografiyasida hamda D.P.Varxotovaning Quva sopollariga bag‘ishlangan “Keramika VII–VIII vv. c gorodisha Kuva” nomli 1990-yillarda e’lon qilingan maqolasida to‘la bo‘lмаган holda e’lon qilingan. Varxotova VII–VIII asrlar Quva sopollarini “kuygan qatlamdan” deb alohida qayd qiladi, ushbu fikr Matboboyevning [8: B.116] qazish tadqiqotlari natijalarida ham e’lon qilingan. Bundan ko‘rinadiki, VIII asrga oid kuygan qatlamlarning butun yodgorlikda uchrashi Quvada bir vaqtning o‘zida kuchli yong‘in bo‘lgan. G.P. Ivanov o‘zining “Excavations at Kuva” [7: P.205.] nomli Londonda 2003-yilda chop etilgan maqolasida Farg‘ona vodiysining janubiy qismidagi qadimgi Quva obidasi dastlab XX asr boshlarida arxeologik e’tiborni jalg qilganligi va olimlarga mahalliy Kay Kubod Tepa nomi bilan ma’lum bo‘lganligi, ushbu shahar haqiqatan ham X asr arab manbalarida juda oz tafsilotlar bilan bo‘lsa-da, eslatib o‘tilgan Quba shahri ekanligini yozadi. Quvaning o‘n joyida salkam 2500 kv. m. ga teng maydonda madaniy qatlamlar ochib o‘rganilganligi va uning yangiliklarini muallif batafsil yoritib o‘tadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda butun dunyoda e'tibor berilayotgan turizmning yutuqlaridan nafaqat Markaziy Osiyo, balki Farg'ona vodiysining muhim ahamiyatga molik hisoblangan tarixiy-arxeologik obyektlaridan unumli foydalanish davr taqazosi hisoblanadi. Birgina Farg'ona viloyatining 136 ta arxitektura, 113 ta arxeologik, 38 ta turli madaniy yodgorliklari, 84 ta diqqatga sazovor joylari, yuzlab tarixiy obidalari borligini inobatga olsak, butun vodiy hududi sayyoohlarni jalg qila oladigan imkoniyatga ega ekanligini isbotlaydi. Buyuk ipak yo'li markazida joylashgan yuqoridagi Qadimgi Farg'onaning yuksak rivojlangan etgan shaharlari tarixini mukammal o'rgangan holda, uning turizm rivojidagi salohiyatidan foydalanish bu nafaqat tarixchilar, arxeologlar, qolaversa, oddiy xalqimizning ham oldidagi yuksak vazifasi hisoblanadi. Buyuk ipak yo'lini tiklash vazifasini bajarashda O'zbekistonning qadimgi shaharlari tarixini o'rganish va turizm imkoniyatlardan foydalanish kelajak oldimizdagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Buyuk ipak yo'li bo'y lab Sharq bilan G'arbni bog'lovchi muhim bo'g'in vazifasini o'tab kelgan Qadimgi Farg'ona shaharlari o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixining ajralmas qismi sifatida o'ziga xos tarix, rivoyat va afsonalarga ega. Turistlar e'tiborini jalg etish usullaridan biri sifatida aynan og'zaki tarix an'analaridan foydalanish ham fikrimizcha, ijobiy natijalar bera oladi. XXI asrda tarixiy-madaniy obidalarni saqlash orqali dunyo xalqlari o'rtasidagi aloqalarni tarixiy nuqtayi nazardan tiklash imkonini beradi. Shu jihatdan, o'zaro madaniy aloqalarni yo'lga qo'yishda arxeologik yodgorliklarning imkoniyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash—davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi // "Xalq so'zi". 2017yil 16-iyun.
2. "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1995yil 2- iyun. PF-1162-son.
3. Абдисаматов Ш.А. Ўзбекистонда ички туризмни ривожлантиришнинг асосий ўйналишлари // Наманган вилоятининг тарихий обидалари ва уларнинг вилоят туризм соҳасининг ривожланишидаги ўрни. Наманган., 2018. –Б.21-22
4. Алиханов М.М. Наманган вилоятидаги тарихий ёдгорликлар ва туризмни ривожлантириш // Наманган вилоятининг тарихий обидалари ва уларнинг вилоят туризм соҳасининг ривожланишидаги ўрни. Наманган., 2018. –Б.8-9
5. Анорбоев А. Ахсикент // Фарғона водийсининг қадимиј шаҳарлари. Тошкент., 2008. 130 б.
6. Бернштам А.Н.. Историко-археологические очерки центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. Москва., 1952., –С.244-245
7. Ivanov G.P. Excavations at Kuva (Ferghana valley/ Uzbekistan) // Iran. XLI, pp. 205-216. London., 2003. 205 p

8. Матбобоев.Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти. Самарқанд., 2009. 560 б
9. Матбобоев Б. Қадимги Қува(Қубо)/Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона Т-2001., Матбабаев Б.Х. Классификация керамики Чустского поселения.– Тошкент.,1984 - ОНУз, № 7, –С.34-39.
10. Закирова С. Ички ва халқаро туризмни ривожлантиришда маданий мерос объектларининг ўрни// Ўрта Осиё тарихи ва археологияси. №5 2022 Термиз археология музейи –Б.14-19
11. Спришевский В.И. Чустская стоянка эпохи бронзы (раскопки 1953 г.). 1954- Советская Этнография, № 3, –С.69-76
12. Спришевский. В.И. Чустское поселение эпохи бронзы (раскопки 1954 г.) - КСИИМК, .–Москва., 1957 .Вып.69, –С.40-49
13. Спришевский В.И. Чустское поселение (К истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф.кан.дис. –Ташкент., 1963. 17 с
14. Turdixo'jayeva, M. M. Farg'ona vodiysida joylashgan Axsikent va Mingtepa yodgorliklarining arxeologik o'r ganilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021(8),–B. 481–487.